| <b>Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich</b>                                                                                                                            |     |
| MARKAZLASHTIRILGAN DISPATCHERLIK TIZIMIDA POEZDLAR HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AVTOMATLAR NAZARIYASIGA ASOSLANGAN INTEGRATSIYALASHGAN MATEMATIK MODEL..... | 620 |
| <b>Muhiddinov Obidjon Omonjon o'g'li</b>                                                                                                                           |     |
| ПРОЦЕНТНЫЙ РИСК ПО КРЕДИТАМ: АНАЛИЗ, ОЦЕНКА И УПРАВЛЕНИЕ.....                                                                                                      | 627 |
| <b>Абдуллаев Шахобиддин Шамсиддинович</b>                                                                                                                          |     |
| REDUCTION OF GREENHOUSE GAS EMISSIONS: EMISSION QUOTAS OR MANDATORY CONTROL TECHNOLOGIES .....                                                                     | 633 |
| <b>Bobonov Doston Abdumo'min o'g'li, Qozoqboyev Jasur Abduvali o'g'li</b>                                                                                          |     |
| AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....                                                     | 637 |
| <b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>                                                                                                                              |     |
| ПОЛУЧЕНИЕ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОГО ЦЕМЕНТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ.....                                                                       | 643 |
| <b>Арипова Мастура Хикматовна, Ташбаев Джахангир Назим угли</b>                                                                                                    |     |
| МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ГОРЕЛОК И ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ ТЕПЛОВОЙ НАГРУЗКИ .....                                                                                       | 652 |
| <b>Ражабов Азамат Тоирович</b>                                                                                                                                     |     |
| QISHLOQ XO'JALIK TEXNIKALARI MARKETINGI VA UNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....                                                                                 | 658 |
| <b>Xolmirzayev Bobur Mansurovich</b>                                                                                                                               |     |
| ПРИМЕНЕНИЕ СУБСИДИАРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ АНКРОТСТВА: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ВОЗМОЖНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                               | 663 |
| <b>Хамзина Динара Рашатовна</b>                                                                                                                                    |     |
| YASHIL REKREATSION TURIZM KONSEPSIYASINI JORIY ETISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI.....                                                                               | 669 |
| <b>Baxriyeva Zarina Nasimovna</b>                                                                                                                                  |     |
| KORXONALARDA DIVERSIFIKATSIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA IQTISODIY MEKANIZMLARINING O'RNI .....                                                                   | 672 |
| <b>Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich</b>                                                                                       |     |
| QALINLIGI 2 MM BO'LGAN TASMALI LISTLARNI SOVUQ HOLATDA PROKATLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH .....                                                       | 679 |
| <b>Yusupov Abdulaziz Abdullajanovich, Saydumarov Botir Muradovich, Arslonov Asadbek G'aybulla o'g'li</b>                                                           |     |
| HUDUDIIY TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI MUHANDISLIK INSHOOTLARI KOMPLEKSINI LOYIHALASH VA QURISH JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH.....                               | 682 |
| <b>Zikrayev Akmaljon Alimovich</b>                                                                                                                                 |     |
| TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLARNI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                                                   | 688 |
| <b>Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi</b>                                                                                                                |     |
| "MIKROSIMULYATSION MODELLAR" VA ULAR YORDAMIDA IQTISODIY SIYOSATGA OID QARORLARNING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA TA'SIRINI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....               | 694 |
| <b>Mualliflar Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Raxmonov Doniyor Ixtiyorjon o'g'li, Ortiqova Niginabonu Alisher qizi, Raxmonov Jo'rabek Hamroyevich</b>              |     |
| MINTAQADA SANOAT KORXONALARI TUZILMAVIY KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA TAMOIYILLARI.....                                                                                 | 702 |
| <b>Jabborov Elbek Erkin o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA TARTIBGA SOLISH .....                                                                                                                  | 707 |
| <b>Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich</b>                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| SMART SOATLAR YORDAMIDA BEMORLAR SALOMATLIGINI NAZORAT QILISH.....                                                   | 712 |
| <i>Alimqulov Nurmuhhammad Muqumjon o'g'li, Eraliyev Humoyun Ma'mirjon o'g'li, Madaminova Mahliyo Bahodirjon qizi</i> |     |
| PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI .....                                              | 718 |
| <i>Sherjonov Doniyor Saparbayevich</i>                                                                               |     |
| TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH IMKONIYATLARINI<br>BAHOLASH.....                                 | 722 |
| <i>Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich</i>                                                                                   |     |
| MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING AHAMIYATI .....                                           | 726 |
| <i>Sultonov Baxtiyor Baxodirovich</i>                                                                                |     |
| UCH FAZALI IKKI CHULG'AMLI MOYLI TRANSFORMATORLARNING ISSIQLIK HISOBINI<br>MODELLASHTIRISH VA TADQIQ QILISH .....    | 731 |
| <i>Taniyev Mirzoxid Xurramovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Omonboyev Dilrux Nuraddin o'g'li</i>              |     |
| ERKIN IQTISODIY ZONALARNING RIVOJLANISHI BOSQICHLARI .....                                                           | 736 |
| <i>Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.</i>                                                                    |     |
| MOLIYAVIY INKLYUZIYANING IJTIMOIIY TABAQALANISHGA TA'SIRINING NAZARIY<br>JIHATLARI.....                              | 740 |
| <i>Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li</i>                                                                       |     |
| ВОПРОСЫ ТРАНСФОРМАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ<br>К МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ..... | 746 |
| <i>Муҳидинов Аюббек Нуритдинович</i>                                                                                 |     |
| РОЛЬ КОЛЛЕКТОРНО-ДРЕНАЖНЫХ СИСТЕМ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ .....                                                         | 753 |
| <i>Жангабаев Данияр Мансурович, Хожамуратова Роза Тажимуратовна</i>                                                  |     |
| ASSESSMENT OF ESG INDICES OF PRESTIGIOUS HOTELS IN UZBEKISTAN .....                                                  | 759 |
| <i>Saidova Madina Xayrullo qizi</i>                                                                                  |     |
| FISKAL SIYOSATDA MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY<br>INSTRUMENTLARI .....                    | 765 |
| <i>Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li</i>                                                                      |     |
| TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINING<br>XORIIY TAJRIBASI.....                    | 771 |
| <i>Jabbarov Nodir Umirovich</i>                                                                                      |     |
| AKSIZ SOLINISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TA'SIRI .....                                                                 | 775 |
| <i>Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna</i>                                                                           |     |
| O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA UNI<br>RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....          | 781 |
| <i>Shavkat Djumaniyazov</i>                                                                                          |     |
| EKISHDA CHIGITNI BIR XIL TARQATISH VA OPTIMALLASHTIRISH USULLARI.....                                                | 787 |
| <i>Imomov Shavkat Jaxonovich, Nuritov Ikrom Rajabovich, Babamuradov Anvar Baxtiyorovich</i>                          |     |
| KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL TIZIMINI<br>JORIY ETISH .....                      | 790 |
| <i>Akbarov Akramjon Ibroximjonovich</i>                                                                              |     |
| INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTYERIYA HISOB VA AUDITINI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....                        | 793 |
| <i>Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li</i>                                                                                |     |
| INTELLIGENT SYSTEM FOR MONITORING AND MANAGEMENT OF THE VEGETABLE OIL<br>REFINING PROCESS .....                      | 798 |
| <i>Ortiqov Elbek Elmirza o'g'li</i>                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA KREATIV INDUSTRIYA VA EVENT-MENEJMENTNING HUQUQIY-ME'YORIY<br>ASOSLARI.....                            | 806 |
| <i>Shaxabatdin Maxamatdinov Isak uli</i>                                                                             |     |



|                                                                                                                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| РОЛЬ И РАЗВИТИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ<br>МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ.....                                                                           | 812 |
| Wang Jianhong, Норов Улугбек Ирискулович                                                                                                                                        |     |
| FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA YORDAMCHI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARI HISOBI<br>VA YORDAMCHI MAHSULOTLAR TANNARXINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....                       | 816 |
| Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna                                                                                                                                                 |     |
| XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARINI<br>STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI DOIRASIDA SHAKLLANTIRISH VA ULARNING HOLATINI<br>TAHLIL QILISH .....        | 821 |
| Hamroyeva Zuhra Amiral qizi                                                                                                                                                     |     |
| К ВОПРОСУ РАСЧЕТА МОЩНОСТИ, НЕОБХОДИМОЙ ДЛЯ РАЗОГРЕВА КРОМОК ТРУБНОЙ<br>ЗАГОТОВКИ ДО ТЕМПЕРАТУРЫ СВАРКИ .....                                                                   | 825 |
| Заиркулов Элёр Ёкубжон ўғли                                                                                                                                                     |     |
| TEKNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARI .....                                                                                                      | 830 |
| Bekishev Allabergen Yergashevich, Hamadulloyev Diyorbek Hasanboy o'g'li                                                                                                         |     |
| ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL AND GOVERNANCE) TAMOIYILLARINING IQTISODIY<br>RIVOJLANISH VA KORPORATIV FAOLIYATGA TA'SIRI: MAKRO VA MIKRO DARAJADAGI<br>TAHLIL .....                | 834 |
| Murtozayev Sardorbek Abdijalil o'g'li                                                                                                                                           |     |
| TESTING THE STATISTICAL SIGNIFICANCE OF DYNAMIC MODELS IN ECONOMICS .....                                                                                                       | 838 |
| Muradov Rustamjon Sobitkhonovich                                                                                                                                                |     |
| REAL IQTISODIY DAVRLAR NAZARIYASI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TADQIQOTLARDA<br>FOYDALANISH.....                                                                                     | 843 |
| Rustamov Narzillo Istamovich                                                                                                                                                    |     |
| РАСЧЕТ РАСТЯЖЕНИЯ ДРЕВЕСИНЫ И ДЕРЕВЯННЫХ КОНСТРУКЦИЙ ИЗ МЕСТНЫХ<br>ДРЕВЕСНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПОД ДИНАМИЧЕСКИМИ НАГРУЗКАМИ.....                                                       | 848 |
| Юнусалиев Эльмурод Мухаммадьякубович, Ташпулатов Илхомжон Бахтиёрович                                                                                                           |     |
| ЦИФРОВИЗАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО<br>ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ФОНДОВОГО РЫНКА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ<br>И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА ..... | 854 |
| Евгений Юрьевич Шек                                                                                                                                                             |     |
| ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ И<br>ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....                                                           | 860 |
| Шодмонов Қобилжон Қахрамон ўғли                                                                                                                                                 |     |
| AGRAR IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK<br>ASOSLARI.....                                                                                         | 870 |
| Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi, Ibrohimova Muazzam Muhammadjon qizi                                                                                                        |     |
| XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI<br>FOYDALANISH VA BU BORADAGI MUAMMOLAR .....                                                                | 873 |
| Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich                                                                                                                                             |     |
| ДАТЧИКИ ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЛЯ МОНИТОРИНГА ТЕПЛИЧНЫХ<br>КОМПЛЕКСОВ .....                                                                                        | 878 |
| Самадов Эльёр Эркинович                                                                                                                                                         |     |
| МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭКСКАВАТОРНО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМПЛЕКСА<br>КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ<br>РАБОТАХ .....                                  | 884 |
| Аннакулов Тулкин Жовбекович, Нормонов Шамсиддин Нураддинович                                                                                                                    |     |
| ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ<br>И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ .....                                                              | 892 |
| Гулямов Шухрат Манапович                                                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH .....                                 | 896 |
| <i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>                                                                                               |     |
| XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....              | 901 |
| <i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>                                                                                       |     |
| THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN .....                                                                                     | 905 |
| <i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>                                                                |     |
| SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....                                                                 | 910 |
| <i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>                                                                                         |     |
| MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                               | 914 |
| <i>Sh.M.Ergashev</i>                                                                                                                |     |
| HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....                               | 918 |
| <i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>                                                                                               |     |
| TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI.....                                            | 922 |
| <i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>                                                                                              |     |
| МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА .....                                       | 927 |
| <i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>                                                                                                  |     |
| МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ .....    | 934 |
| <i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>                                 |     |
| HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI .....                                                             | 939 |
| <i>Xamroqulov M.J.</i>                                                                                                              |     |
| UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....                                       | 944 |
| <i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>                                                                                                    |     |
| YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....                                             | 949 |
| <i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>                                                                                                  |     |
| KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV .....                                          | 953 |
| <i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>                                                                                           |     |
| КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ .....                                                                      | 958 |
| <i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>                                                                                                   |     |
| TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....                                       | 963 |
| <i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>                                                                                                |     |
| ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ .....                               | 969 |
| <i>Абралов Музаффар Махмудович</i>                                                                                                  |     |
| РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ .....                           | 975 |
| <i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>                                                                                           |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....             | 979 |
| <i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>                                                                                           |     |
| OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI ..... | 984 |
| <i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>                                                                                          |     |



# OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

**Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i

ORCID: 0009-0001-4743-0118

E-mail: [j.abdullayev@trm.uz](mailto:j.abdullayev@trm.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada global raqobat sharoitida mamlakatlarning barqaror taraqqiy etishini ta'minlovchi "drayver" sohalari, ya'ni oliy ta'lim sohasi hamda davlat-xususiy sherikligi (DXSh) mexanizmining birgalikdagi natijaga yo'naltirilgan samarali hamkorligining institutsional va me'yoriy-huquqiy asoslari bayon etilgan. Shu bilan birga, oliy ta'lim sohasini DXSh asosida transformatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga ham to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, davlat-xususiy sherikligi, transformatsiya, global raqobat.

**Abstract.** This scientific article examines the institutional and regulatory frameworks of effective result-oriented cooperation between higher education and public-private partnership (PPP) mechanisms under conditions of global competition. Higher education is identified as one of the key "drivers" of sustainable national development. The paper also analyzes ongoing reforms aimed at transforming the higher education sector based on PPP mechanisms.

**Keywords:** higher education, public-private partnership, transformation, global competition.

**Аннотация.** В данной научной статье рассматриваются институциональные и нормативно-правовые основы эффективного взаимодействия высшего образования и механизма государственно-частного партнерства (ГЧП), ориентированного на достижение совместных результатов в условиях глобальной конкуренции. Показано, что высшее образование выступает одним из ключевых «драйверов» устойчивого развития стран. Также освещаются реализуемые реформы по трансформации сферы высшего образования на основе механизмов ГЧП.

**Ключевые слова:** высшее образование, государственно-частное партнерство, трансформация, глобальная конкуренция.

## KIRISH

Bugungi kunda global ta'lim makonida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va innovatsion ekotizimlarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim sohasida barqaror rivojlanishga erishish, infratuzilmani yangilash, ta'lim sifati va universitetlarning institutsional salohiyatini oshirishda davlat-xususiy sherikligi (DXSh) mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. OECD, UNESCO, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan oliy ta'limda DXShni joriy etish universitetlar barqarorligini ta'minlovchi zamonaviy boshqaruv modeli sifatida e'tirof etilgan. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda: ta'lim muassasalarining avtonomiyasini kengaytirish, talabalar qabul kvotalarini liberallashtirish, nodavlat OTMlar sonining ortishi, xalqaro universitetlar filiallarining ochilishi hamda infratuzilmani yangilash bo'yicha keng ko'lamli harakatlar kuzatilmoqda.

Oliy ta'lim infratuzilmasini DXSh asosida rivojlantirish mamlakatdagi moliyaviy yukni kamaytirish, xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish va ta'limning sifat mezonlarini oshirishda muhim omilga aylandi. Ammo amaliyotda DXSh loyihalarini tanlovdan o'tkazish, baholash, shartnoma tuzish, fiskal xatarlarni aniqlash va monitoring mexanizmlarini joriy etishda bir qator institutsional va me'yoriy-huquqiy muammolar mavjud. Xususan, oliy



ta'limga oid DXSh loyihalarining tartiboti, mezonlari va huquqiy normalari boshqa infratuzilma sohalari (transport, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar) uchun ishlab chiqilgan umumiy qoidalar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlari — akademik avtonomiya, ta'lim standartlari, ijtimoiy majburiyatlar va talabalar manfaatlarini himoya qilish kabi jihatlarni yetarli darajada qamrab olmaslikka olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta'limni DXSh asosida transformatsiya qilishning institutsional va me'yoriy-huquqiy asoslarini chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda xalqaro tajriba asosida uyg'un modelni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nazariy va amaliy asoslari xorijlik olimlardan E. Eskombe, E. Farquharson [1], D. Holl [2], R. Hemming [3], J. Delmon [4], F. Barrera-Osorio [5], H. Patrinos [6], R. Davies [7], E. Iossa va D. Martimort [8] hamda boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida keng o'rganilgan. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlaridan V.A. Kabashkin [9], V.G. Varnavskiy [10], E.A. Mokhortov, A.S. Semchenkov [11], E.A. Dinin [12], V.V. Maksimov [13]larning ilmiy ishlari davlat-xususiy sheriklikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini shakllantirish, bevosita ta'lim xizmatlari, xususan, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish hamda DXSh mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy va metodologik asoslari respublikamiz iqtisodchi olimlari — S.S. G'ulomov, Q.H. Abdurahmonov [14], N.D. Rahimova, O.Q. Abdurahmonov, N.K. Zokirova [15], M.X. Saidov [16], M.Q. Pardaev [17], N. Yusupov, F. Karabaev [18], U. Jumaniyazov [19], B. Ollanazarov [20], Q. Xalmuratov [21], G. Sadullaeva [22] va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan. Shuningdek, N. Yusupov va F. Karabaev BMT Taraqqiyot dasturi doirasida DXShning shakllanishi va rivojlanishi masalalarini, B. Ollanazarov turizm sohasida DXSh asosida investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarini, U. Jumaniyazov esa uy-joy qurilishi sohasida DXSh asosida korporativ boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. Q. Xalmuratov Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalarini o'rgangan.

Mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida ham oliy ta'lim tizimini rivojlantirish masalalarining ayrim jihatlari tahlil qilingan bo'lib, akademik S.S. G'ulomov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda, asosan, oliy ta'lim tizimini samarali boshqarishni yo'lga qo'yish hamda uni xalqaro standartlarga muvofiq raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [23]. Shuningdek, B.Yu. Xodiev oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy o'quv adabiyotlarining ahamiyatini alohida ta'kidlab, oliy ta'lim muassasalaridagi kutubxonalar faoliyatini o'zgaruvchan taraqqiyot muhitiga mos ravishda bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini ko'rsatib o'tadi [24]. Milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda iqtisodchi olimlardan N. Yusupov va F. Karabaev BMT Taraqqiyot dasturi doirasida DXShning shakllanishi va rivojlanishining ayrim nazariy-uslubiy masalalarini tadqiq qilganlar. Shuningdek, U. Jumaniyazov tomonidan DXSh asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Biroq mazkur ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'lim sohasida DXSh mexanizmlarini samarali qo'llash va rivojlantirish istiqbollari, sohani xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish hamda uning institutsional va me'yoriy-huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Bu holat tanlangan maqola mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va institutsional islohotlar investitsiya muhitini yaxshilashga, xorijiy va mahalliy investorlar sonining ortib borishiga ko'maklashmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy ravishda davlat tasarrufida va boshqaruvida bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlari hamda ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammo va kamchiliklar DXSh tizimini joriy etishni jadallashtirish yuzasidan muhim choralar ko'rishni taqozo etmoqda. Ijtimoiy va kommunal sohalar, shaharsozlik va obodonlashtirish, yo'l xo'jaligi hamda energetika sohasidagi davlat monopoliyasi tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sifatini, shuningdek, davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini pasaytirmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda DXShni rivojlantirishning tamoyillari, shartlari va yo'nalishlarini belgilovchi huquqiy hamda institutsional baza, shuningdek, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda budjet tizimiga moliyaviy, texnik va tijorat tavakkalchiliklarining ta'sirini baholash mexanizmi ishlab chiqildi.

Davlat-xususiy sherikligi mexanizmlaridan foydalanish orqali infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda, shuningdek, ularni tizimli monitoring qilishda davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tuzilmasida "Davlat-xususiy sheriklik loyihalari markazi" loyiha ofisi tashkil etildi. Mazkur loyiha ofisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-avgustda qabul qilingan PQ-308-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, unga Davlat-xususiy sheriklik jamg'armasiga kelib tushgan mablag'larni samarali boshqarish vazifalari yuklangan. Shuningdek, loyiha ofisiga loyihalarga konsultantlarni jalb qilish, doimiy ravishda road-showlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish, xalqaro platformalardan keng foydalanish, DXSh yo'nalishida mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha o'quv seminarlarini tashkil etish, amaliyotni xorijda o'tkazish hamda xalqaro sertifikatlar olishni yo'lga qo'yish, 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturidagi loyihalarda mahalliy kontent ulushini oshirish va loyihalarni milliy valyutada moliyalashtirishni kengaytirish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish vazifalari yuklangan.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni o'zaro manfaatli sharoitlarda tezkorlik bilan hal etish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida turizm sohasini samarali boshqarish va muvofiqlashtirish uchun institutsional imkoniyatlar majmuasini yaratish muhim masala bo'lib qolmoqda. 2019-yil 10-may kuni "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlarning qonuniy asosda tartibga solinishini mustahkamladi. Albatta, ushbu qonun qabul qilinishidan avval ham maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash va kommunal xo'jalik kabi sohalarda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish bo'yicha bir qator amaliy ishlar amalga oshirilgan. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida DXSh mexanizmlarini amaliyotga keng joriy etishning institutsional asoslari yaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktabrda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3980-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Mazkur qarorga muvofiq Agentlikning asosiy vazifalari sifatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi va afzalliklarini baholash uslubiyotini ishlab chiqish, loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlash, loyihalar to'g'risidagi axborotni ochiq joylashtirish va ularning reyestrini yuritish, DXSh dasturlarini amalga oshirishda, jumladan, loyihalar konsepsiyalarini ishlab chiqishda vazirlik va idoralarga ko'maklashish, investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlari, ilmiy hamda ekspert hamjamiyatlari bilan hamkorlikni tashkil etish, DXSh loyihalari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari, shu jumladan, tavakkalchiliklarni aniqlash va taqsimlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish, DXSh loyihalarini hamda budget mablag'laridan foydalanilishini monitoring qilish belgilandi [25].

Keyinchalik, Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish, davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish va faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish, shuningdek, Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda qabul qilingan PF-269-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tugatilib, uning vazifa va funksiyalari Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o'tkazildi.

Natijada, DXSh bo'yicha institutsional mas'uliyatga ega bo'lgan uchta tuzilma shakllanib, ular 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. DXSh loyihalari, shartnomalari va xalqaro hamkorlikni amalga oshirishga mas'ul institutsional tuzilmasi [26].



Yuqorida keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, Iqtisodiyot va moliya vazirligining boshqaruv tuzilmasi tarkibida tashkil etilgan DXSh bo'yicha institutsional mas'uliyatga ega bo'lgan tuzilmalar quyidagi vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi. Iqtisodiyot va moliya vazirligining Fiskal xatarlarni baholash boshqarmasi (FXBB) davlatning DXSh loyihalari bo'yicha fiskal va shartli majburiyatlariga oid ma'lumotlarni to'playdi hamda kuzatib boradi. FXBB har yili DXSh loyihalari bo'yicha umumiy fiskal majburiyatlarni hisoblaydi va Vazirlar Mahkamasiga DXSh kafolatlarini uchun budjet limitlarini taklif etadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining DXSh bo'limi DXSh shartnomalaridagi to'lovlar va kafolatlar hisobini yuritadi, fiskal majburiyatlarni hisoblashda yordam beradi, taklif etilayotgan DXSh loyihalarining xatarlari, sifati, talabi va fiskal majburiyatlarini baholaydi. Shuningdek, bo'lim FXBB uchun tavsiyalar va fiskal tahlillarni tayyorlaydi, qiymati 10 million AQSh dollaridan oshgan loyihalarining Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun yuborilishini ta'minlaydi hamda DXSh shartnomalari doirasidagi fiskal majburiyatlarning bajarilishini kuzatib boradi. DXSh loyihalari markazi mahalliy va xalqaro mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etadi hamda DXSh tashabbuslari, namunaviy shartnomalar, modellar va samaradorlik mezonlarini ishlab chiqadi. Shuningdek, markaz DXSh loyihalarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi [...].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 30-aprelda qabul qilingan PF-6218-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2021–2023-yillarda davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da DXSh sohasini tartibga soluvchi 13 ta normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish belgilangan. DXSh sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, loyihalarini amalga oshirishda huquqiy aniqlik va institutsional barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur jarayon xorijiy va mahalliy investorlar uchun ishonchli va shaffof muhit yaratadi, shuningdek, fiskal xatarlarni kamaytiradi hamda davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, standartlashtirilgan tartiblar va yagona huquqiy baza loyihalar sifati, samaradorligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini oshirishga imkon beradi. Tizimlashtirilgan normativ-huquqiy asoslar xalqaro standartlarga mos ravishda DXSh mexanizmlarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

DXSh sohasida huquqiy va institutsional jarayonlarni yanada takomillashtirish uchun, avvalo, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni xolis ekspertiza asosida qayta ko'rib chiqish, bir-biriga zid normalarni bartaraf etish va ularni yagona tizimga keltirish maqsadga muvofiq. DXSh loyihalarini tashabbus qilish, tanlov o'tkazish, baholash va monitoring qilish bo'yicha standartlashtirilgan uslubiy qo'llanmalarni joriy etish, shuningdek, fiskal xatarlarni baholashning yagona metodologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, davlat xizmatchilari va loyiha menejerlari uchun DXSh bo'yicha muntazam malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish, raqamli platformalar orqali loyihalar shaffofligini ta'minlash hamda xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, OECD va EBRD standartlariga moslashgan huquqiy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlar mamlakatda samarali, barqaror va investorlar uchun jozibador DXSh muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yescombe, E. R., & Farquharson, E. (2018). Public-private partnerships for infrastructure: Principles of policy and finance (2nd ed.). Butterworth-Heinemann. ISBN 978-0-08-100766-
2. Hall, D. (2015). Why public-private partnerships don't work: The many advantages of the public alternative. Public Services International Research Unit (PSIRU).
3. Hemming, R. (2006). Public-private partnerships. IMF Institute and Joint Africa Institute, Tunis, Tunisia.
4. Delmon, J. (2011). Public-private partnership projects in infrastructure. Cambridge University Press. ISBN 978-0-521-15228-0.
5. Barrera-Osorio, F. (2018). The impact of public-private partnerships on private school performance: Evidence from a randomized controlled trial in Uganda. *Economic Development and Cultural Change*, 67(3), 559–589. <https://doi.org/10.1086/701229>
6. Patrinos, H. A. (2009). The role and impact of public-private partnerships in education. World Bank.
7. Love, P. E. D., Davis, P. R., Chevis, R., & Edwards, D. J. (2011). Risk/reward compensation model for civil engineering infrastructure alliance projects. *Journal of Construction Engineering and Management*, 137(2), 127–136.
8. Iossa, E., & Martimort, D. (2015). The simple microeconomics of public-private partnerships. *Journal of Public Economic Theory*, 17(1), 4–48. <https://doi.org/10.1111/jpet.12114>
9. Kabashkin, V. A. (2010). Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo v regionakh Rossiyskoy Federatsii [O'quv qo'llanma]. Delo.



10. Varnavskiy, V. (2011). Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo: Nekotorye voprosy teorii i praktiki. Mirovaya ekonomika i mezhdunarodnye otnosheniya, (9), 41–50.
11. Makhortov, E. A., & Semchenkov, A. S. (n.d.). Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo kak forma otnosheniy vlasti i biznesa v Rossii. Elektron manba.
12. Dynin, E. A. (2007). Riski biznesa v chastno-gosudarstvennom partnerstve. Obshchestvo i ekonomika, (5), 56–68.
13. Maksimova, V. V. (2010). Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo v transportnoy infrastrukture. Moskva. ISBN 978-5-9614-1143-0.
14. G'ulomova, S. S., & Abdurahmonova, Q. H. (2004). Ta'lim va inson taraqqiyoti: Jahon amaliyoti va O'zbekiston tajribasi (Monografiya). TDIU.
15. Rahimova, D. N., Abdurahmonov, O. Q., & Zokirova, N. K. (2005). Ta'lim marketingi va mehnat bozori. Sovetskiy pisatel.
16. Saidov, M. X., & Peregudov, L. V. (2001). Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. Moliya.
17. Pardaev, M. Q., & Musayev, H. N. (Tahr.). (2008). Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohaslarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari (Monografiya). Iqtisod-moliya.
18. Yusupov, N., & Karabaev, F. (2013). Davlat-xususiy sherikligi: nazariya va amaliyot (O'quv moduli). UNDP Uzbekistan. <https://www.undp.org/uzbekistan>
19. Jumaniyazov, U. I. (2017). Davlat-xususiy sherikligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). TDIU.
20. Ollanazarov, B. (2019). Davlat-xususiy sherikligi mexanizmi asosida turizm sohasida investitsion faollikni oshirish yo'nalishlari. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, (1), 36–41.
21. Xalmuratov, Q. (2021). Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). QorDU.
22. Sadullaeva, G. S. (2018). O'zbekistonda ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali, (6).
23. G'ulomov, S. S. (2004). Masofaviy iqtisodiy ta'lim. Sharq.
24. Xodiev, B. Yu. (2005). Oliy iqtisodiy ta'lim tizimi uchun zamonaviy o'quv adabiyotlari yaratish: yangi standartlar, tuzilma va mazmun. TDIU.
25. Dwight, L. (2025). Republic of Uzbekistan and public-private partnerships: Country lessons. IMF Selected Issues Paper, SIP/2025/087. International Monetary Fund.
26. Muallif ishlanmasi.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)